

## TIBBIYOT MUASSASALARIDA MOLIYAVIY TAHLIL QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

**Hasanov Husinboy Xudayberganovich**  
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti  
Biznes boshqaruv va moliya kafedrasи assistenti  
E-mail: [khusinboyh@mail.ru](mailto:khusinboyh@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tibbiyot muassasalarini moliyaviy holatini baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar moliyaviy holati, rentabellik, likvidlik aylanish ko'rsatkichlar, to'lovga qobiliyatilik va moliyaviy hisobotlari masalalari o'r ganildi. Tibbiyot muassasalar faoliyati tahlil qilish natijasida olingan xulosalar asosida, tibbiyot muassasalarni moliyaviy tahlil qilishi takomilashtirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** tibbiyot muassasasi, rentabellik, likvidlik, to'lovga qobiliyatilik, moliyaviy tahlil.

**Abstract.** This article examines the main indicators used to assess the financial condition of medical institutions: financial condition, profitability, liquidity turnover indicators, solvency and financial reporting. Based on the conclusions obtained as a result of the analysis of the activities of medical institutions, conclusions and proposals for improving the financial analysis of medical institutions were developed.

**Keywords:** medical institution, profitability, liquidity, solvency, financial analysis.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются основные показатели, используемые для оценки финансового состояния медицинских учреждений: финансовое состояние, рентабельность, показатели оборачиваемости ликвидности, платежеспособность и финансовая отчетность. На основе выводов, полученных в результате анализа деятельности медицинских учреждений, разработаны выводы и предложения по совершенствованию финансового анализа медицинских учреждений.

**Ключевые слова:** медицинское учреждение, рентабельность, ликвидность, платежеспособность, финансовый анализ.

### Kirish

Hozirgi kunda O'zbekistonda xususiy tibbiyot sektori jadal rivojlanmoqda. Bu esa tibbiy xizmatlar sifatining oshishi va sog'liqni saqlash tizimida raqobat muhitining kuchayishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, xususiy klinikalar uchun moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish va resurslardan oqilona foydalanish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Moliyaviy tahlil xususiy klinikalar faoliyatining samaradorligini aniqlash, investitsion qarorlar qabul qilish va strategik rejalashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Ammo amaldagi moliyaviy tahlil uslublari ayrim hollarda yetarlicha to'liq yoki aniq natija bermasligi mumkin. Shu sababli, bu maqola xususiy klinikalarni moliyaviy tahlil qilish usullarini takomillashtirish zaruratini asoslaydi.

**Adabiyotlar sharhi.** Xususiy tibbiyot muassasalarining moliyaviy boshqaruvi va tahlili masalalari jahon miqyosida keng o'rganilgan. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyaviy tahlil sog'lijni saqlash tizimi samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Richard A. Brealey va Stewart C. Myers 2020 [1] moliyaviy tahlilni strategik boshqaruv vositasi sifatida ko'rib, kapital tuzilmasi, foyda ko'rsatkichlari va investitsion samaradorlik tahlilini markazga qo'yadilar. Ularning fikricha, sog'lijni saqlash tashkilotlari uchun nafaqat joriy moliyaviy natijalar, balki uzoq muddatli qiymat yaratish ham muhim hisoblanadi.

Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti hisobotlariga ko'ra (2018, 2022)[2], xususiy klinikalar uchun moliyaviy barqarorlik xizmat sifati va uzlusizligi bilan chambarchas bog'liq. Moliyaviy monitoring vositalari (masalan, operatsion marja, EBITDA, likvidlilik koeffitsiyentlari) sog'lijni saqlash tashkilotlarida keng qo'llaniladi

O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan e'lon qilingan [3] 2021-2024 yillar uchun sog'lijni saqlash tizimini rivojlantirish strategiyalarida xususiy sektorning ishtiroki va moliyaviy barqarorligi bo'yicha aniq maqsadlar belgilangan. Shu bilan birga, xususiy klinikalar uchun yagona moliyaviy tahlil standartlari ishlab chiqilmagan.

Mahmudov M. va Qodirov I. (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekistondagi xususiy klinikalarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlili tizimida turli format va yondashuvlar mavjudligi qayd etilgan.

Innovatsion yondashuvlar jarayonida tibbiyotda moliyaviy tahlilni avtomatlashtirish va KPI monitoring tizimlari orqali real vaqt rejimida boshqarish tendentsiyasi kuchaymoqda. Deloitte va McKinsey (2022) tahlillariga ko'ra, sun'iy intellekt asosidagi tahliliy platformalar yordamida sog'lijni saqlash muassasalarining moliyaviy holatini proqnoz qilish aniqligi 30-40% ga oshgan.

**Metodologiya.** Tadqiqotda xususiy klinikalarining boshqaruv modellari, samaradorlik ko'rsatkichlari va moliyaviy holatini baholash uchun quyidagi metodlardan foydalilanildi.

#### 1. SWOT tahlili

SWOT tahlili xususiy klinikalarining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavf-xatarlarini aniqlashda foydalilanildi. Bu metod tadqiqotning boshqaruv modellarini takomillashtirishga qaratilgan strategiyalarini ishlab chiqishda asosiy ahamiyat kasb etadi.

#### 2. PEST tahlili

PEST tahlili orqali xususiy klinikalarni boshqarishga ta'sir etuvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologiyaviy omillar o'rganiladi. Bu usul xususiy klinikalarga tashqi muhitdan kelib chiqadigan xavflar va

imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi.

### 3. Iqtisodiy samaradorlik tahlili

#### a) Daromad va xarajatlarni tahlil qilish formulası

Iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun xususiy klinikaning daromad va xarajatlarini tahlil qilish muhim. Bu jarayonda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$P=TR-TC$$

Bu yerda:

- PPP — foyda (daromaddan qoladigan sof pul),
- TR — umumiylar daromad (total revenue),
- TC — umumiylar xarajatlar (total costs).

Formulaning ma'nosi shundaki, xususiy klinikaning iqtisodiy samaradorligi uning umumiylar daromadidan umumiylar xarajatlarini chiqarib tashlash orqali hisoblanadi. Umumiylar xarajatlar klinikaning maoshlar, operatsiya xarajatlari, qonunchilik talablari va boshqa moliyaviy majburiyatlarini o'z ichiga oladi.

#### b) Rentabellikni hisoblash formulası

Xususiy klinikalarning moliyaviy samaradorligini baholash uchun rentabellik koeffitsiyentini [4] hisoblash kerak. Bu koeffitsiyent klinikaning daromadli yoki zararli ekanligini ko'rsatadi. Rentabellik koeffitsiyenti quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$R = \frac{P}{TR} * 100$$

Bu yerda:

- R — rentabellik (foydalilik koeffitsiyenti),
- P — foyda (profits),
- TR — umumiylar daromad.

Bu formula xususiy klinikaning umumiylar daromadlariga nisbatan qancha foiz foyda olishini ko'rsatadi. Rentabellik koeffitsiyenti 100 foizdan kam bo'lsa, bu klinikaning samarali boshqarilmayotganidan dalolat beradi.

**Tahlil va natijalar.** Xususiy klinikalarda moliyaviy tahlilni takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi:

- Integratsiyalashgan axborot tizimlari joriy qilish – moliyaviy va operatsion hisobotlarni yagona platformada boshqarish imkonini beradi;
- Moliyaviy ko'rsatkichlar monitoringi uchun KPI tizimlari yaratish – bu xizmat sifatini moliyaviy natijalar bilan bog'lash imkonini beradi;
- Raqamli moliyaviy rejalashtirish (financial forecasting) vositalaridan foydalanish;

• Xodimlar malakasini oshirish – moliyaviy menejer va buxgalterlar uchun muntazam treninglar tashkil etish;

Standartlashtirilgan moliyaviy tahlil metodikasi ishlab chiqish – bu tahlil natijalarini qiyoslashni osonlashtiradi.

Respublikamizda tibbiyot muassasalarini biri "Anfa Clinic" MChJ xususiy klinikasi moliyaviy holati tahlil qilish uchun tanlab olindi. Maqolada

klinikaning 5 yillik moliyaviy holati ko'rish mumkin.

Rentabellik ko'rsatkichlari tahlili						
Nº	Ko'rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
1	Sotish rentabelligi	18,8%	-6,2%	19,8%	-18,5%	5,1%
2	Aktivlar rentabelligi	27,3%	-6,1%	22,7%	-23,0%	9,4%
3	O'z kapitali rentabelligi	31,3%	-6,2%	26,8%	-30,8%	12,9%
4	Xarajatlar rentabelligi	24,3%	-6,1%	25,7%	-16,9%	5,5%
5	Uzoq muddatli aktivlar rentabelligi	75,8%	-23,4%	70,5%	-60,7%	29,7%
6	Qisqa muddatli aktivlar rentabelligi	42,7%	-8,4%	33,8%	-37,4%	13,8%

"Anfa Clinic" MChJ xususiy klinikasi moliyaviy hisobotlarini o'r ganib chiqib rentabellik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Tahlil natijasiga ko'ra Anfa klinikasining uzoq

muddatli aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi 2019 yilda 75,5% bo'lgan, 2023 yilda esa 29,7 % kamayganini ko'rish mumkin.

№	Koeffitsiyentlar	Likvidlilik koeffitsiyentlari									
		2019		2020		2021		2022		2023	
		Yil boshida	Yil oxirida	Yil boshida	Yil oxirida	Yil boshida	Yil oxirida	Yil boshida	Yil oxirida	Yil boshida	Yil oxirida
1	Absolut likvidlilik	1,51	25,06	25,06	56,91	56,91	8,29	8,29	2,02	2,02	0,05
2	Muddatli likvidlilik	1,6	25,9	25,9	71,6	71,6	15,0	15,0	4,1	4,1	2,7
3	Qoplash koeffitsiyenti (Joriy likvidlilik)	2,5	32,5	32,5	90,2	90,2	21,5	21,5	10,3	10,3	4,5
4	Debitorlik va kreditorlik qarzlari nisbati	16,6	1,1	1,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,5	0,5	0,4
5	O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	0,6	1,0	1,0	1,0	1,0	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6

Likvidlilik koeffitsiyentlari ham jadvalda tahjil qilingan. Bunda Likvidlilik koeffitsiyentlari ichida eng yuqori koeffitsiyent Debitorlik va kreditorlik qarzlari nisbati 16,6 bo'lgan 2019 yilda, 2023 yilda esa 4,5 qoplash koeffitsiyenti (Joriy likvidlilik) hisoblanadi.

**Xulosa.** Tibbiyot muassasalarida moliyaviy tahlil tizimini takomillashtirish, ularning umumiy samaradorligi va barqarorligini oshirishda muhim rol o'yнaydi. Tadqiqot asosida aniqlangan muammolar va berilgan takliflar real hayotga joriy etilsa, klinikalar

faoliyatining iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Kelgusida ushbu sohada raqamli texnologiyalar

asosida avtomatlashtirilgan moliyaviy tahlil tizimlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

### *Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati*

1. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Moliyaviy menejment: nazariya va amaliyot. – Moskva: Infra-M, 2020. – 1056 b.
  2. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO). Global spending on health: A world in transition. – WHO, 2019.
  3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. 2022–2026 yillarda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiysi. – Toshkent, 2021.
  4. Hasanov H.X., Xususiy klinikalarni boshqarishni takomillashtirish., Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation., Vol.3 №5 (2025) 1031-1040 b
- Sherzodov Sh. Tibbiyot muassasalarida moliyaviy tahlilning zamonaviy yo'nalishlari. // Moliyaviy tahlil jurnali. – 2022. – №2. – B. 44–51.